

Адабиётлар

1. Абдукодилов А. Таълим жараёни бoшқаришда замонавий ёндашувлар. – Тошкент: «Фан ва технология», 2015.
2. Бондаревская Е.В. Педагогическая культура и саморазвитие личности. – Ростов н/Д: «Феникс», 1995.
3. Жўраев Р. Таълим муассасалари раҳбарларида касбий компетенцияларни ривожлантириш. –Тошкент: «Ўқитувчи», 2018.
4. Мескон М., Альберт М., Хедоури Ф. Основы менеджмента. – Москва: «Дело», 2004.
5. Сластёнин В.А. Педагогика: учебное пособие. – Москва: «Академия», 2002.

РЕЗЮМЕ. Мақолада умумтаълим мактаблари раҳбарларининг бошқарув салоҳиятини селф-менежмент ёндашуви асосида ривожлантиришнинг илмий-назарий ҳамда амалий жиҳатлари таҳлил қилинган. Глобаллашув ва рақамли трансформация жараёнилари шароитида мактаб раҳбарларининг шахсий ва касбий ривожланиши, уларда стратегик фикрлаш, инновацион ғояларни жорий этиш, рефлексия ва ўз-ўзини баҳолаш механизмларини самарали қўллаш зарурлиги асослаб берилган.

РЕЗЮМЕ. В статье проанализированы научно-теоретические и практические аспекты развития управленческого потенциала руководителей общеобразовательных школ на основе селф-менеджмента. Обоснована необходимость личностного и профессионального развития школьных руководителей в условиях глобализации и цифровой трансформации, формирования у них стратегического мышления, внедрения инновационных идей, а также эффективного применения механизмов рефлексии и самооценки.

SUMMARY. The article analyzes the scientific-theoretical and practical aspects of developing the managerial potential of general education school leaders based on self-management. It substantiates the necessity of personal and professional development of school leaders in the context of globalization and digital transformation, the formation of strategic thinking, the implementation of innovative ideas, as well as the effective application of reflection and self-assessment mechanisms.

O'QUVCHILARNING INTELLEKTUAL SALOHİYATINI GLOBAL MUAMMOLARNI TAHLIL QILISH ORQALI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

O.X.Kurbanov – o'qituvchi

Nukus Prezident maktabi

Tayanch soʻzlar: intellektual salohiyat, global muammolar tahlili, Cambridge Global Perspectives, tanqidiy fikrlash, fizika taʼlimi, global kompetensiya.

Ключевые слова: интеллектуальный потенциал, анализ глобальных проблем, Cambridge Global Perspectives, критическое мышление, обучение физике, глобальная компетенция.

Key words. intellectual potential, global problem analysis, Cambridge Global Perspectives, critical thinking, physics education, global competence.

Kirish. XXI asrda jahonda va respublikamiz taʼlim tizimiga oid global va texnologik jadal rivojlanishlarga mos ravishda ijodiy va tanqidiy fikrlash, axborotlarni tahlil qilish hamda ijtimoiy jihatdan muammolarni anglash qobiliyatiga ega boʻlgan oʻquvchilarni tayyorlash muhim vazifalar sifatida ifodalanmoqda. Respublikamizda oʻtkazilgan xalqaro baholash natijalaridan oʻquvchilarning mantiqiy va tahliliy fikrlash qobiliyatlarining rivojlanishida kamchiliklar mavjudligini koʻrish mumkin, bu esa, aniq natijaga qaratilgan ishlarni bajarishning ustunligi hamda tanqidiy fikrlashni qoʻllab-quvvatlovchi uslubiy tavsiyalar, didaktik vositalarning yetarli emasligi bilan izohlanadi. Cambridge Global Perspectives konsepsiyasi fanlar misolida, xususan fizika taʼlimida iqlim oʻzgarishi, energiya xavfsizligi, yadro texnologiyalari kabi global masalalarni koʻp qirrali tahlil qilish orqali oʻquvchilarda intellektual salohiyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun, oʻquvchilarning intellektual salohiyatini global muammolar tahlili asosida shakllantirish va rivojlantirish, Cambridge Global Perspectives konsepsiyasini respublikamizdagi taʼlim muhitiga moslashtirish hamda fanlararo integrasiyalash ishlarini amalga oshirish orqali kognitiv faoliyatga oid faollikni kuchaytirish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

Muammoning oʻrganilishi. Mavjud manbalarning tahlillariga koʻra, oʻquvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika va psixologiyada juda koʻp qirrali tushuncha sifatida izohlanganligini koʻrish mumkin. Bunda intellektual

salohiyat faqatgina bilimlar majmuasi emas, balki axborotni qabul qilish, tahlil qilish, qayta ishlash, umumlashtirish va ijodiy yondashgan holda yangi gʻoyalarni yaratishdagi kognitiv, refleksiv va ijtimoiy qobiliyatlar uygʻunligini anglatadi. Jumladan, Pedagogikada M.Kashapov [6] va boshqalar taʼlimda fikrlashga oid qobiliyatidagi faollik darajasini oshirish, ijodiy va tanqidiy yondashuvlarni shakllantirish orqali intellektual salohiyatni yuqori saviyada rivojlantirishni asoslab berishgan. Psixologik nazariyalarda esa, J.Gilford, R.Kettell, G.Gardner, V.Kruteskiy [7] kabi olimlar intellektual salohiyatni har tomonlama, keng qamrovli, yaʼni ijtimoiy, mantiqiy, fazoviy, verbal va mulohaza qilishga oid qobiliyatlarni qamrab oluvchi kompleks tizim sifatida tavsiflagan.

Cambridge Global Perspectives konsepsiyasi UNESCO Global Citizenship Education, OECD Global Competence Framework va PISA baholash tizimlari bilan uygʻun boʻlgan holda, global anglash, tanqidiy fikrlash, axborot tahlili va fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan fanlararo taʼlim modelini taklif etadi [1]. Bu konsepsiyaning nazariy jihatdan asoslari V.Vigotskiy, J.Brunerning konstruktivizm va faoliyatga asoslangan taʼlim nazariyalari, Bloom taksonomiyasining yuqori bosqichlari (tahlil, baholash, yaratish) hamda kompetensiyaviy yondashuv tamoyillariga tayanadi [1].

Asosiy qism. Jahonning rivojlangan davlatlarida turli xil fanlarni oʻzaro integratsiya qilish va fanlarga oid kompetensiyalarni zamonaviy talablar asosida shakllantirishda Cambridge Global Perspectives

konsepsiyasi tatbiq etilmoqda. Jumladan, fizikani o'rganish jarayonida tanqidiy fikrlash, multimadal tahlil qilish usullarini qo'llash orqali o'quvchilarda keng qamrovli butunjahon o'zgarishlarga mos ravishda global muammolarga ongli ravishda munosabat bildirish, fikrlash jarayonida ko'p qirralilikni ta'minlashga oid mas'uliyat hissini rivojlantirishga munosib e'tibor qaratilmoqda. Bu boradagi ishlar bo'yicha tajribalar AQSh, Kanada, Germaniya, Finlandiya, Janubiy Koreya va Singapur kabi rivojlangan davlatlarda mavjud bo'lib, ularda Cambridge Global Perspectives konsepsiyasi fanlararo aloqalar va o'qitishning zamonaviy metodlari bilan uyg'unlashuvi samarali yo'lga qo'yilgan [2, 3, 4, 5].

Xususan, AQShda Cambridge Global Perspectives dasturi STEM fanlari, xususan fizika bilan integratsiya qilingan holda critical literacy va media evaluation strategiyalari orqali amalga oshiriladi. Kanada maktablarida Cambridge Global Perspectives konsepsiyasi fizika va biologiya fani qonuniyatlarini ekologik tahlil qilish orqali o'zaro integratsiya qilinadi. Bunda vizual tahlillar, simulyatsion vaziyatlar keng qo'llanilib, o'quvchilarda kompleks tahlil va ijtimoiy mulohaza ko'nikmalari shakllantiriladi. Germaniyada Cambridge Global Perspectives konsepsiyasi barqaror rivojlanish uchun ta'lim strategiyasi bilan integratsiya qilingan bo'lib, fizika darslarida qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya samaradorligi va CO₂ chiqindilar hisob-kitobi kabi mavzular ko'rib chiqiladi. Finlandiya Cambridge Global Perspectives dasturini hodisaga asoslangan o'qitish modeli bilan o'zaro integratsiya qilgan. Masalan, iqlim o'zgarishiga oid bilim va ko'nikmalar fizika va geografiya fanlari orqali birgalikda o'rganiladi. Bunda o'quvchilar global muammolarni va ta'sirlarni tahlil qiladi hamda ularga shaxsiy munosabatini, o'z pozitsiyasini bildirib, refleksiv mulohazalarini yozma, vizual shakllarda ifoda etadi. Singapurda Cambridge Global Perspectives dasturi Cambridge Lower Secondary bosqichida "Science and Society" moduli bilan o'zaro integratsiya qilingan. Bunda iqlim o'zgarishi mavzusida o'quvchilar fizik jarayonlar sifatida parnik effekti, energiya balansi hamda ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini tahlil qilishadi. Mashg'ulotlar mulohazalar tashkil etish, esse yozish, turli xil debatlar o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Bu kabi rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalarini ayrim jihatlarini respublikamiz sharoitida samarali qo'llash mumkin. Xususan, fanlararo integratsiyalash maqsadida fizika mavzularini ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik masalalar bilan bog'lash; Case-study va projekt asosida o'qitish yuzasidan iqlim o'zgarishi, energiya xavfsizligi va yadro texnologiyalariga oid holatlarni tahlil qilish; interaktiv vizual vositalar sifatida simulyatsiya va laboratoriya tajribalarini o'zaro integratsiya qilish; baholash indikatorlari sifatida tanqidiy fikrlash, ijtimoiy anglash va ijodiy yechim taklif qilish qobiliyatlarini mezon sifatida kiritish mumkin.

Mavjud ilmiy-nazariy manbalarning tahlillariga ko'ra, Cambridge Global Perspectives konsepsiyasining didaktik jihatdan tarkibi, tuzilishi quyidagi uchta asosiy yo'nalishlardan iborat:

a) Fanlararo o'zaro integratsiya – tabiiy fanlar, ijtimoiy fanlar, til fanlari o'rtasida mazmun va faoliyat jihatidan o'zaro integratsiya;

b) Faoliyatga asoslangan o'qitish – keys tahlil, tadqiqot loyihasi, debat, turli xil taqdimotlar kabi interfaol usullar;

s) Kompetensiyaviy natijalar – muloqot va hamkorlik, tanqidiy fikrlash, global anglash, ijodiy faoliyatga oid yondashuvlar.

Fizika ta'limiga o'zaro teng huquqli integratsiya qilish modeli Cambridge Global Perspectives konsepsiyasining asosiy tamoyillarini fizika fanining dolzarb, ahamiyatli masalalari, mavzulari bilan o'zaro integratsiya qilishga qaratilgan bo'lib, quyidagi bosqichlarni o'z ichiga qamrab oladi. Jumladan, *global kontekst tanlash* – yildan yilga iqlimning o'zgarishi, energiya xavfsizligi, yadro texnologiyalari, suv resurslari kabi mavzular; *fanlararo tahlil* – fizika qonuniyatlari (energiya almashinuvi, issiqlik uzatilishi, elektromagnit nurlanish, yadro reaksiyalari)ni ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy nuqtayi nazar bilan bog'lash; *tanqidiy fikrlashni faollashtirish* – Bloom taksonomiyasining yuqori bosqichlariga mos ravishda savollar, topshiriqlar berish orqali tahlil, baholash va yaratuvchanlik ko'nikmalarni rivojlantirish; *ijtimoiy mulohaza va fuqarolik pozitsiyasi* – turli xil mulahozalar va munozaralar, o'zaro tortishuv jarayoni, jamoaviy birgalikda qarorlar qabul qilish jarayonida o'quvchilarning o'ziga xos ijtimoiy anglash qobiliyatlarini shakllantirish; *baholash va refleksiya* – kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan indikatorlar asosida o'quvchilarning o'z-o'zini talab darajasida baholash, tengdoshlari bahosi va erishilgan natijalari bo'yicha portfolio tahlili.

Shu tariqa, Cambridge Global Perspectives konsepsiyasi talablari doirasida fizikani o'qitish jarayonida faqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanmasdan, bu o'z navbatida o'quvchilarda fanlararo anglash, dalilga asoslangan fikr bildirish, ijodiy yechim taklif qilish hamda global muammolarga faol munosabat bildirish salohiyatini shakllantiradi. Bu jarayon intellektual salohiyatni rivojlantirishning nazariy asoslarini milliy ta'lim maqsadlari va xalqaro tendensiyalar uyg'unligida ta'minlaydi.

Xulosa va tavsiyalar. Umuman olganda, jahonda ta'lim sohasi o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish, texnologik va global o'zgarishlarga moslashuvchan, ijodiy va tanqidiy fikrlaydigan shaxslarni tayyorlashda asosiy shart hisoblanadi. Cambridge Global Perspectives konsepsiyasi fizikani o'qitish va o'rganish jarayonida boshqa fanlar bilan o'zaro integratsiya qilish, global muammolarning yuqori saviyada tahlili, ijtimoiy anglash va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish orqali qo'yilgan didaktik maqsadlarga erishishda samarali usullar sifatida ifodalanmoqda.

Tadqiqot davomida, xalqaro tajriba, ilmiy-nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, Cambridge Global Perspectives konsepsiyasi o'quvchilarda yuqori saviyadagi kognitiv faollik, ijtimoiy jihatdan mas'uliyat, tanqidiy fikrlashni zamonaviy talablar asosida rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratadi. Respublikamizda Cambridge Global Perspectives konsepsiyasini milliy ta'lim muhitiga moslashtirish, fizika ta'limida interfaol va kompetensiyaviy yondashuvlarni kengroq tatbiq etish, baholash mezonlarini, uslubiy vositalarni takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega.

Yuqorida ilgari surilgan g'oyalar va tadqiqot davomida kelingan xulosalar asosida quyidagi bir qator tavsiyalarni berish mumkin:

Birinch, uslubiy qo'llanmalar yaratish maqsadida fizika fanini Cambridge Global Perspectives asosida o'qitish uchun global muammolarni tahlil qilishga imkon beradigan turli xil topshiriqlar, keyslar va loyiha ishlanmalarini qamrab olgan uslubiy to'plamlar ishlab chiqish zarur;

Ikkinchi, fanlararo o'zaro integratsiyani kuchaytirish maqsadida fizika faniga oid mavzularni geografiya, biologiya, iqtisodiyot kabi fanlar bilan o'zaro integratsiya qilib o'qitish orqali o'quvchilarda ko'pqrirali tahlil qilish kompetensiyalarini rivojlantirish zarur;

Uchinchi, tanqidiy va ijtimoiy jihatdan fikrlashni faollashtirish maqsadida turli xil munozaralar, loyiha ishlari, simulyatsiya mashg'ulotlarini tashkil etishga oid ilg'or usullarni dars jarayoniga joriy etish maqsadga muvofiq;

To'rtinchi, baholash tizimini takomillashtirish maqsadida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan me'zonlar sifatida tanqidiy va ijodiy tahlil qilish, induksiya va deduksiya metodlari yordamida ijodiy yechimlar taklif qilish, ongli yondashuvlar asosida ijtimoiy anglashga qaratilgan mezonlardan foydalangan holda o'quvchilar faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish lozim;

Beshinchidan, o'qituvchilar malakasini oshirish maqsadida Cambridge Global Perspectives konsepsiyasiga oid talablar, qoidalar, g'oyalarni zamonaviy usullarda amaliyotga joriy etish, fanlararo integratsiyalash bo'yicha maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish lozim;

Oltinchidan, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellektga asoslangan interfaol vositalardan foydalanish orqali laboratoriya ishlari, simulyatsiya mashg'ulotlari, multimedia resurslaridan amalda keng foydalanish orqali fizika darslarini o'qitishni hayotiy vaziyatlarni muhokama qilish, hal qilish va boshqa jarayonlariga yaqinlashtirish maqsadga muvofiq.

Bu borada Cambridge Global Perspectives konsepsiyasini AQSh, Kanada, Germaniya, Finlyandiya, Janubiy Koreya va Singapur kabi rivojlangan davlatlar mavjud bo'lgan tajribalarni respublikamizdagi ta'lim jarayoniga zaruriyatga ko'ra joriy etish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shu tariqa, ushbu yo'nalishdagi tadqiqot ishlari hamda amalga oshirilayotgan amaliy ishlari ta'limning global talablariga javob beradigan intellektual jihatdan har tomonlama rivojlangan o'quvchilarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Cambridge Assessment International Education. Cambridge Global Perspectives: Developing learners' global outlook and competencies. – Cambridge: «Cambridge University Press & Assessment», 2023..
2. Cambridge Assessment International Education. Cambridge International AS & A Level Global Perspectives & Research: Syllabus overview – Cambridge: «Cambridge University Press & Assessment», 2024.
3. National Academy of Engineering; National Research Council. STEM Integration in K-12 Education: Status, Prospects, and an Agenda for Research. – Washington, DC: The National Academies Press, 2014.
4. Drew, Chris. What is Finland's Phenomenon-based Learning approach? // Teacher Magazine.
5. Hobbs, Renee. Global Perspectives: Developing Media Literacy Skills to Advance Critical Thinking. // School Library Media Research. 2007. Vol. 10.
6. Кашапов М.М. Психология творческого мышления: учебное пособие. – Москва: «ИНФРА-М», 2017.
7. Богословский В.И. и др. Общая психология: учебник для академического бакалавриата. / В.И.Богословский, С.В.Кондратьев, В.А.Сластенин; под ред. В.И.Богословского. 2-е изд., испр. и доп. – Москва: «Юрайт», 2018.

REZYUME. Maqolada o'quvchilarning intellektual salohiyatini global muammolar tahlili orqali rivojlantirish masalasi pedagogik muammo sifatida ko'rib chiqiladi. Cambridge Global Perspectives konsepsiyasi asosida fizika ta'limida tanqidiy fikrlash, axborot tahlili va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari yoritiladi hamda xalqaro va milliy tajribalar tahlil etiladi.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматривается проблема развития интеллектуального потенциала учащихся через анализ глобальных проблем как педагогическая задача. На основе концепции Cambridge Global Perspectives раскрываются теоретические и практические основы формирования критического мышления, анализа информации и гражданской позиции в обучении физике, а также анализируется международный и национальный опыт.

SUMMARY. The article addresses the issue of developing students' intellectual potential through the analysis of global problems as a pedagogical challenge. Based on the Cambridge Global Perspectives concept, it outlines the theoretical and practical foundations for fostering critical thinking, information analysis, and civic engagement in physics education, as well as examines international and national experiences.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA ILMIY TADQIQOTLAR TAHLILI

O.Kurbanbayeva – *tayanch doktorant*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: pedagogik kompetentlik, bo'lajak o'qituvchilar, kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik mahorat, ta'lim sifati, rivojlantirish modeli, o'qituvchilar tayyorlash tizimi.

Ключевые слова: педагогическая компетентность, будущие учителя, компетентностный подход, профессиональная подготовка, педагогическое мастерство, качество образования, модель развития, система подготовки учителей.

Key words: pedagogical competence, future teachers, competency-based approach, professional training, pedagogical mastery, quality of education, development model, teacher training system.

Kirish. Zamonaviy jamiyatning jadal rivojlanishi va globallashtirish jarayonlari ta'lim tizimiga va o'qituvchilik kasbiga bo'lgan talablarni tubdan o'zgartirmoqda. Bugungi

kunda o'qituvchi nafaqat bilim va ko'nikmalarni uzatuvchi, balki ijodiy, tanqidiy va mustaqil fikrlaydigan, innovatsion texnologiyalarni qo'llay oladigan, zamonaviy axborot mu-